

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQAL CHET TILLARINI O'RGANISH: AN'ANAVIY TA'LIMDAN ZAMONAVIY YONDASHUVGA

Muxtorova Mubina Avazbek qizi

Farg'ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti filologiya

Va tillarni o'qitish: ingliz tili

1-bosqich talabasi

Imiy rahbar: Toshboltayev Faxriddin

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining chet tillarini o'rganishdagi o'rni va zamonaviy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. An'anaviy ta'limguslublari bilan zamonaviy texnologiyalar orqali til o'rganish o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Onlayn platformalar, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar, mobil ilovalar va multimedia vositalarining til o'rganishga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Annotation: This article explores the role of information technology in learning foreign languages and highlights modern approaches. It analyzes the differences between traditional teaching methods and contemporary technological tools in language acquisition. The article also discusses the influence of mobile applications, artificial intelligence, online platforms, and other digital resources on the language learning process.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, chet tillari, onlayn ta'limguslublari, sun'iy intellekt, an'anaviy yondashuv, zamonaviy yondashuv

Keywords: Information technology, foreign languages, online education, mobile applications, artificial intelligence, traditional approach, modern approach

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'rganish shaxsiy va kasbiy taraqqiyot uchun muhim omil hisoblanadi. Xususan, ingliz, koreys, nemis va boshqa tillarni bilish

xalqaro darajadagi o‘qish va ish imkoniyatlarini kengaytiradi. An’anaviy ta’limda til o‘rganish ko‘proq darsliklar, grammatik qoidalar va o‘qituvchi yordami orqali olib borilsa, zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni yanada qulay va interaktiv holga keltirdi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida til o‘rganish endi internet orqali, istalgan joyda va vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

Axborot texnologiyalarining eng samarali yutuqlaridan biri bu — multimedia vositalaridir. Video darslar, audio materiallar, virtual lug‘atlar, interaktiv testlar va simulyatsiya ilovalari yordamida til o‘rganish osonlashmoqda. Ayniqsa, YouTubedagi o‘quv videolari yoki TED Talks ma’ruzalari orqali o‘quvchilar real hayotdagi talaffuz, intonatsiya va uslubni o‘rganishlari mumkin. Audio-podcastlar esa eshitish ko‘nikmalarini kuchaytiradi va so‘z boyligini kengaytiradi.

Zamonaviy o‘quvchilar uchun ijtimoiy tarmoqlar ham til o‘rganishning samarali manbaiga aylangan. Facebook guruhlari, Telegram kanallari, Reddit forumlari yoki Discord chatlari orqali tilni ona tilida so‘zlashuvchilar bilan bevosita muloqot qilish mumkin. Bu jarayon nafaqat amaliy ko‘nikmalarni oshiradi, balki o‘rganuvchini til muhitiga yaqinlashtiradi.

Kelajakda til o‘rganish jarayonida virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining o‘rni katta bo‘ladi. Misol uchun, VR orqali o‘quvchilar boshqa mamlakatlarda va madaniyatlarda bo‘lib, interaktiv muloqot qilishlari mumkin. Bu, ayniqsa, tilni jonli ravishda va tabiiy muhitda o‘rganishga imkon yaratadi. AR texnologiyasi yordamida esa, til o‘rganish jarayonida o‘quvchi atrof-muhitdagi obyektlar bilan interaktiv aloqada bo‘lishi va shu orqali tilni tezroq o‘zlashtirishi mumkin.

Gamifikatsiya (yoki o‘yin asosidagi ta’lim) til o‘rganishda muhim usulga aylangan. Ilovalar va platformalarda o‘yin elementlarini qo‘shish (masalan, ball to‘plash, darajalar o‘tish, yutuqlarni qo‘lga kiritish) o‘quvchini rag‘batlantiradi va motivatsiyasini oshiradi. Bu metod nafaqat o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi, balki o‘rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Duolingo va Memrise kabi ilovalar aynan shu prinsipga asoslangan

Sosial tarmoqlar va forumlar til o‘rganishda muhim vositalar sifatida ko‘riladi. Bu platformalarda o‘quvchilar o‘zlarining yurtida yoki boshqa davlatlardagi tilni biladigan insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, forumlar, guruhlar, bloglar va chatlar orqali o‘quvchilar o‘rganayotgan tilni qo‘llash orqali amaliy ko‘nikmalarini oshiradilar. Ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlarda tilni o‘rganish bo‘yicha maslahatlar va resurslar almashish ham juda foydali bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarining kirib kelishi til o‘rganishga yangi uslublarni olib keldi. Masalan:

Duolingo, Babbel, Memrise kabi mobil ilovalar tilni o‘yin shaklida o‘rgatadi;

Coursera, EdX, FutureLearn kabi onlayn platformalar xalqaro universitetlar tomonidan o‘tiladigan kurslarni taklif qiladi;

YouTube va podkastlar yordamida tinglab tushunish va talaffuzni yaxshilash mumkin;

ChatGPT, Grammarly kabi sun’iy intellektga asoslangan vositalar yozish va tarjima qilishni osonlashtiradi.

Bu texnologiyalar istalgan vaqtida va joyda mustaqil o‘rganish imkonini beradi, bu esa ish bilan band yoki o‘qishga bora olmaydigan insonlar uchun ayni muddao.

An’anaviy uslublar darsliklar, yozma topshiriqlar, grammatic mashqlar va o‘qituvchi bilan yuzma-yuz mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar orqali o‘quvchi tilning nazariy jihatlarini chuqur o‘zlashtiradi. Shuningdek, sinfdagi muhit, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, bu usullar ko‘p vaqt va sabr talab qiladi. Individual yondashuv imkoniyati cheklangan bo‘lib, har bir o‘quvchining o‘z sur’atida o‘rganishi qiyin kechadi.

Agar biz an’anaviy usul va zamonaviy yondashuvni chuqur taqqoslaydiga bo’lsak, an’anaviy usulda o‘rganish joyi odatda cheklangan ya’ni faqatgina sinfxonalarda bo‘lib o’tadi. Lekin , bundan mustasno tarzda, zamonaviy IT yondashuvi esa har qanday joyda

o'rganish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, zamonaviy ususlida moslashuvchanlik an'anaviydan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Xarajat va o'zlashtirish tezligiga keladigan bo'lsak, an'anaviy ta'lim ancha qimmat va sezilarli darajada ko'p vaqt talab qilgan bir paytda, zamonaviy usul ko'pincha bepul yoki arzon va tez o'rganish imkoniyatlarini taklif qiladi. Shuningdek zamonaviy yondashuvda interaktivlik an'anaviy usulga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bu taqqoslashlardan ko'rinish turibdiki, zamonaviy texnologiyalar yordamida til o'rganish yanad samarali va moslashuvchan kechadi. Biroq bu usullar qachonki bolada yuqori ichki motivatsiya bo'lsa va ichki intizom yetarli darajada mustahkam bo'lsagina yordam bera oladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari bugungi kunda chet tillarini o'rganish jarayonida muhim omillardan biriga aylangan. An'anaviy ta'lim yondashuvlari asrlar davomida sinovdan o'tgan va o'z samarasini bergen bo'lsa-da, zamonaviy dunyo tezkor va moslashuvchan o'rganishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, IT vositalari — onlayn kurslar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar, mobil ilovalar, video va audio materiallar — o'rganish samaradorligini oshirishda katta yordam bermoqda. Bunday vositalar yordamida o'quvchi o'zining o'rganish sur'atini nazorat qila oladi, individual yondashuvni tanlaydi va istalgan vaqtida mustaqil ravishda til o'rganishni davom ettiradi. Biroq, axborot texnologiyalari to'liq tarzda an'anaviy uslublarni almashtira olmaydi. O'qituvchining yo'l-yo'riqlari, interaktiv dars muhitlari va jonli muloqot hali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng samarali natijaga erishish uchun bu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish zarur: ya'ni, IT yondashuvlaridan unumli foydalanib, uni an'anaviy metodlar bilan birlashtirish orqali o'rganish jarayonini boyitish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davronov B. "Axborot texnologiyalari va ta'lim tizimi." – Toshkent, 2021.
2. Karimova M. "Til o'rganishning psixologik asoslari." – Samarqand, 2020.
3. <https://www.duolingo.com/>
4. <https://www.coursera.org/>

5. <https://chat.openai.com/>
6. <https://www.edx.org/>
7. <https://www.britishcouncil.org/english>